

DEZINFEKSIYA
TADBIRLARINI O'TKAZISH
BO'YICHA
USLUBIY QO'LLANMA

Toshkent – 2025

Dezinfeksiya tadbirlarini o'tkazish bo'yicha uslubiy qo'llanma.

T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil. – 22 bet.

Mazkur qo'llanma O'zbekiston Respublikasida dezinfeksiya tadbirlarini o'tkazish tartibini sodda va ravon tilda tushuntirishga qaratilgan.

Ushbu qo'llanma davlat xizmatchilari, investorlar, tadbirkorlar hamda keng jamoatchilik uchun mo'ljallangan.

Ushbu uslubiy qo'llanma tavsiyaviy xususiyatga ega.

© O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil.

MUNDARIJA

Foydalanilgan normativ-huquqiy hujjatlar	4
Kirish	5
Asosiy Tushunchalar	5
Dezinfeksiya tadbirlarini o'tkazishga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talablari	9
Joriy va o'choqli (yakuniy) dezinfeksiya tadbirlarini o'tkazishga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talablari.....	Ошибка! Закладка не определена.
Dezinfeksiya tadbirlarini amalga oshiruvchi tashkilotlarni xonalari hamda jihozlariga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talablari	20

Foydalanilgan normativ-huquqiy hujjatlar

O'zbekiston Respublikasining "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida"gi Qonuni	
Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 13-sentabrdagi "Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalarida tibbiy xizmatlar sifatini yaxshilashga, o'tkazilayotgan profilaktika tadbirlarining samaradorligi uchun mas'uliyatni oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 718-son qarori	
Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining 2025-yil 5-maydagi 8-sonli "Dezinfeksiya tadbirlarini o'tkazish, dezinfeksiya xizmatini amalga oshiruvchi tashkilotlarni joylashtirish hamda ularning xonalari va jihozlariga, dezinfeksiya vositalarini saqlash, tashish va ulardan foydalanishga oid sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori	

KIRISH

So'nggi yillarda infeksiyon kasalliklar profilaktikasi va sanitariya-epidemiologik farovonlikni ta'minlash bo'yicha talablar kuchayib, dezinfeksiya tadbirlarini ilmiy asosda rejalash va standartlashtirish dolzarb masalaga aylandi. Ushbu uslubiy qo'llanma aynan shunday ehtiyojlardan kelib chiqib, muassasa va tashkilotlarda (sog'liqni saqlash, ta'lim, xizmat ko'rsatish, ishlab chiqarish va boshqalar) dezinfeksiyani xavfsiz, samarali va tejamkor tashkil etish uchun amaliy ko'rsatmalarni taqdim etadi.

Qo'llanmada risklarga asoslangan rejalashtirish, vositalarni to'g'ri tanlash va eritmalar tayyorlash me'yorlari, ishchi hududlar va jihozlarni qayta ishlash ketma-ketligi hamda shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish talablari yoritiladi. Shuningdek, nazorat-o'lchov, hujjatlashtirish va sifatni baholash tartiblari, shoshilinch vaziyatlarda (o'choqli holatlar) tezkor choralarni ko'rish bo'yicha algoritmlar beriladi. Mazkur qo'llanma dezinfeksiya jarayonlarining barqaror natijasini ta'minlash, epidemiologik xavflarni kamaytirish va amaldagi sanitariya me'yorlariga muvofiqlikni oshirishga qaratilgan. .

ASOSIY TUSHUNCHALAR

Dezinfeksiya tadbirlarini o'tkazish, dezinfeksiya xizmatini amalga oshiruvchi tashkilotlarni joylashtirish hamda ularning xonalar va jihozlar, dezinfeksiya vositalarini saqlash, tashish va ulardan foydalanishda quyidagi **asosiy tushunchalar** qo'llaniladi:

jamoat binolari – odamlarning vaqtincha yashashi va turli xil faoliyat turlarini amalga oshirishlari uchun mo'ljallangan obyektlar: madaniyat, jismoniy tarbiya, sport, ilm-fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, savdo, umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat ko'rsatish muassasalari va tashkilotlari, bank-moliya muassasalari, qurilish-kommunal tashkilotlari, aloqa, transport korxonalari hamda ma'muriy binolar;

joylashtirish vositalari – mehmonxonalar, turistik bazalar va majmualar, dam olish uylari va zonalari, pansionatlar, kempinglar, motellar, mehmon uylari, o'tov va chodirli oromgohlar, sanatoriylar hamda mehmonxona xizmatlari (joylashtirish bo'yicha xizmatlar) ko'rsatiladigan boshqa obyektlar, shuningdek, joylashtirish vositasi sifatida tunab qolish uchun jihozlangan yer usti transporti;

transport infratuzilmasi obyektlari – yo'lovchilarga, yuk jo'natuvchilarga, yuk oluvchilarga, tashuvchilarga va tashish jarayonining boshqa ishtirokchilariga xizmat ko'rsatish, shuningdek transport vositalarining ishlashini ta'minlash uchun mo'ljallangan inshootlar, ishlab chiqarish-texnologik majmualar;

dezinfeksiya – yuqumli kasalliklarni yuqish zanjirini uzish va kelib chiqishini oldini olish uchun tashqi muhit obyektlarida o'ta xavfli va

yuqumli kasalliklarning patogen mikroorganizmlarini yo'q qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui;

dezinseksiya – hasharotlarni yo'q qilish va paydo bo'lishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui;

deratizatsiya – turli xil o'ta xavfli va yuqumli kasalliklarning tashuvchisi bo'lgan kemiruvchilarni kamaytirish yoki yo'q qilishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui;

dezinfeksiya tadbirlari – profilaktik (dezinfeksiya, dezinkeksiya, deratizatsiya), joriy, o'choqli (yakuniy) dezinfeksiyani o'tkazishga doir ishlar majmui;

dezinseksiya tadbirlari – patogen mikroorganizmlar, invaziv kasalliklar, qon so'ruvchi bo'g'imoyoqlilar va boshqa hasharotlarga qarshi profilaktik, joriy va o'choqli (yakuniy) dezinkeksiyaning o'tkazishga doir ishlar majmui;

deratizatsiya tadbirlari – kemiruvchilar va ularning ektoparazitlarini yo'q qilish, ko'payishini nazorat qilish hamda ular tarqatadigan kasalliklarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui;

profilaktik dezinfeksiya – doimiy ravishda epidemiya holatidan qat'iy nazar yuqumli va parazitlar kasalliklarning oldini olishda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmui;

joriy dezinfeksiya – epidemiologik ahamiyatga ega tashkilot va muassasalar yuqumli va parazitlar kasalliklarning tarqalishini oldini olish uchun muntazam yoki doimiy olib boriladigan infeksiyalar tarqalishiga qaratilgan chora-tadbirlar majmui;

o'choqli (yakuniy) dezinfeksiya – infeksiya manbai bartaraf etilgandan keyin (bemorlarni shifoxonaga joylashtirish, o'lim holati,

ambulator davolanishni tugatish va salbiy testlarni olish) patogenlarni to'liq yo'q qilish uchun amalga oshiriladigan tadbirlar majmui;

repellent – turli xil hasharotlar va kemiruvchilarga nisbatan qo'rqituvchi xususiyatlarga ega bo'lgan vosita yoki qurilmalar;

rodentitsid vosita – dori vositalari yordamida kemiruvchilarni nobud qilish.

Dezinfeksiya tadbirlarini (dezinfeksiya, dezinseksiya, deratizatsiya) o'tkazishda dezinfeksiya vositalarining xavf sinfi hisobga olinishi hamda inson va atrof-muhitga zarar yetkazmaslik uchun III-IV xavf sinfiga kiruvchi dezinfeksiya vositalaridan, ta'lim tashkilotlarida esa **faqat** IV xavf sinfiga kiruvchi dezinfeksiya vositalaridan foydalanish lozim.

DEZINFEKSIYA TADBIRLARINI O'TKAZISHGA QO'YILADIGAN SANITARIYA-GIGIYENA TALABLARI

Profilaktik dezinfeksiya tadbirlarini o'tkazishga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talablari

Profilaktik dezinfeksiya tadbirlari quyidagi obyektlarda o'tkazilishi zarur:

jamoat binolari va joylashtirish vositalarida;

oqova suvlarni tozalash inshootlari, qabristonlar, qattiq maishiy chiqindilarni utilizatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar hududida;

aholi turar joylarini sanitar tozalash bilan shug'ullanuvchi tashkilot hududlarida;

rekreatsiya va sog'lomlashtirish maqsadlariga mo'ljallangan obyektlar hamda ularning hududlarida;

bojxona terminallarida;


transport infratuzilmasi obyektlarida;

davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlarida;

temir yo'l, daryo vokzallari, avtovokzallar, aeroportlar va metropolitenda.

Profilaktik dezinfeksiya tadbirlari o'tkaziladigan obyektlarda xodimlar dezinfeksiya ishlari o'tkazilishi haqida **bir kun oldin ogohlantirilishi** kerak.

Profilaktik dezinfektsiya tadbirlarini o'tkazishda quyidagilarga rioya qilish kerak:



Profilaktik dezinfektsiya tadbirlari o'tkazilgandan so'ng bakteriologik usul yordamida yuzalardan **surtma olinishi** va **laboratoriya** tekshiruvlari o'tkazilishi zarur.



Profilaktik dezinfektsiya tadbirlari o'tkazilgan obyektlardan olingan surtmalarda **E. coli bakteriyalari** tuman (shahar) markazidan **5 foizgacha**, olis va chekka hududlardan esa **3 foizgacha** aniqlanganda, dezinfektsiya tadbirlari sifatli o'tkazilgan hisoblanadi.



Turar joy obyektlarining zinapoyalari, lift, chiqindi kamerasi, chiqindilarni to'plash moslamalarida profilaktik dezinfektsiya o'tkazilishi lozim.



Profilaktik dezinfektsiya tadbirlari o'tkazilgandan so'ng, obyektidagi barcha yuzalar nam mato bilan artib **tozalanishi** va xonalar **shamollatilishi** zarur.

**Obyektni, buyumlarni, biologik ajratmalarni dezinfektsiya qilishda
sarflanadigan dezinfektsiya vositalarining miqdori**

1-jadval

T/r	Dezinfektsiya tadbirlari o'tkaziladigan obyekt, buyumlar, biologik ajratmalar	Dezinfektsiya tadbirlari o'tkaziladigan obyektlarning o'lchov ko'rsatkichlari	Dezinfektsiya vositasining o'rtacha miqdori	Kuydirgi va sil kasalligida qo'llanilishi
1.	Turar joy obyektlaridagi yuza	1 m ²	0.5 l	kuydirgi o'chog'iga 2-marta ishlov berilganda 2 l
2.	Ichki kiyimlar	1 kg	4 l	sil va kuydirgi kasalligida 5 l
3.	Idishlar	1 to'plam	2 l	-
4.	Tuproq yuzasi (tashlamalar)	1 m ²	2 l	kuydirgi kasalligida
5.	Suvli ajratmalar	1 l yoki 1 kg	0.2 kg xlorli preparat	kuydirgi kasalligida 0,5 kg
6.	Ovqat qoldiqlari	1 kg	0.2 xlorli preparat	kuydirgi kasalligida 0,5 kg

**Yuqumli kasallik o'chog'ida yakuniy dezinfektsiya o'tkazish uchun
sarflanuvchi dezinfektsiya vositasining miqdori (bitta o'choq uchun)**

2-jadval

T/r	Yuqumli kasalliklar nomi	Asosiy vositalarning sarf miqdori		
		Gipoxlorid natriy (1 litr ishchi eritma)	Septodez (1 litr erit ishchi eritma)	Gipoxlorid kalsiy (g)
1.	Qorin tifi, paratif va dizenteriya	1 (0,5%)	1(2%)	600
2.	Sil	1 (3%)	1 (3%)	600
3.	Kuydirgi	1 (3%)	1 (3%)	800
4.	Zamburug' kasalliklari	1 (5%)	1 (1%)	1000
5.	Polimiyelit va boshqa enterovirusli infeksiyalar	1(2%)	1 (2%)	1000

Dezinfeksiya vositalarining ruxsat etilgan miqdorlari

T/r	Ishchi eritma nomi	Suv havzalari suvidagi REM (mg/l)	Atmosfera havosidagi REM (mg/m³)	Ishchi zona havosidagi REM (mg/m³)	Mahsulot nomi va ishchi eritmaning REMi (mg/kg)	Qoldiq miqdorlarni aniqlash usullari
1.	Xlorli ishchi eritma	0,2	0,6	5,2	Oziq-ovqat mahsulotlarida bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi	Gigiyenik shartlar (GJX). Texnik shartlar (TSX)
2.	Xlor	0,2	0,6	5,0	Oziq-ovqat mahsulotlarida bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi	Gigiyenik shartlar (GJX). Texnik shartlar (TSX)
3.	Kalsiy gipoxlorid	0,24	0,1	6,0	Oziq-ovqat mahsulotlarida bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi	Gigiyenik shartlar (GJX). Texnik shartlar (TSX)
4.	Lizol	2,5	0,5	4,5	Oziq-ovqat mahsulotlarida bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi	Gigiyenik shartlar (GJX). Texnik shartlar (TSX)
5.	Karbofos	0,005	0,014	0,5	Yorma, non, tamaki, yeryong'oq, olma, behi 1,0 bodring, nok, choy bilan 0,5	Texnik shartlar (TSX)
6.	Muksid	0,3	0,1	8,0	Oziq-ovqat mahsulotlarida bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi	Gigiyenik shartlar (GJX). Texnik shartlar (TSX)
7.	Borkislot	1,5	0,3	3,3	Oziq-ovqat mahsulotlarida bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi	Gigiyenik shartlar (GJX). Texnik shartlar (TSX)

8.	Zookumarin	0,0001	0,0006	0,005	Oziq-ovqat mahsulotlarida bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi	Gigiyenik shartlar (GJX). Texnik shartlar (TSX)
9.	Ratindan	0,0002	0,00005	0,003	Oziq-ovqat mahsulotlarida bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi	Gigiyenik shartlar (GJX)
10.	Geknaat	1,5	0,1	10,0	Oziq-ovqat mahsulotlarida bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi	Gigiyenik shartlar (GJX)

BILIB OLING!

Deratizatsiya tadbirlari jamoat binolari va joylashtirish vositalarida hamda ularga tutash bo'lgan ochiq tabiat hududlari, shuningdek kemiruvchilarning yashash joylarida amalga oshirilishi kerak.



Qattiq maishiy chiqindi solish taralarida **kemiruvchilar paydo bo'lishining oldini olish uchun** deratizatsiya tadbirlari **oyda 1 marta** o'tkazilishi, bunda kemiruvchilar aniqlanganda deratizatsiya tadbirlarini zudlik bilan o'tkazish kerak.

Deratizatsiya vositalari repellent ta'sirga ega bo'lishi kerak.

DERATIZATSIYA VOSITALARINI TANLASHDA QUYIDAGILARNI HISOBGGA OLIISH ZARUR:

-  obyektning xususiyatlari (turi, toifasi, sanitariya-texnik holati);
-  kemiruvchilarning biologik xususiyatlari (turi, joylashish xususiyatlari, vositalarga chidamliligi);
-  rodentitsid vositalarning xususiyatlari (ta'sir etuvchi modda va uning konsentratsiyasi, o'tkir yoki surunkali ta'siri, qo'llash shakli va usuli, odamlar va hayvonlar uchun zaharliligi).
-  Kemiruvchilar uchun xo'raklar odamlar va uy hayvonlarining kirishiga yo'l qo'ymaydigan joylarda raqamlangan konteynerlarga joylashtirilishi lozim.
-  Xo'raklarning rodentitsid vosita ta'sirlari atrof-muhitga tarqalishiga va ularning oziq-ovqat mahsulotlariga, dori-darmonlarga, kundalik buyumlarga tushishiga yo'l qo'yilmaydi.

Kemiruvchilarga qarshi deratizatsiya tadbirlari yakunlangach, xo'rak qoldiqlari yig'ilishi va yo'q qilinishi zarur.



Aholi punktlari hududida hamda yuqumli antropozoonoz kasalliklarning tabiiy o'choqlarida deratizatsiya tadbirlari epidemik ko'rsatkichlar va sanitariya-gigiyenik tadbirlari bo'yicha amalga oshirilishi kerak.

Obyektda deratizatsiya tadbirlarini o'tkazishda kemiruvchilarning joylashuvini aniqlanishi kerak.



Havo kemasida kemiruvchilar aniqlansa, zudlik bilan deratizatsiya tadbirlari amalga oshirilishi lozim. Zoonoz infeksiyalarning tabiiy va antropurgik o'choqlarida epidemik va sanitariya-gigiyenik ko'rsatkichlar bo'yicha o'choqli deratizatsiya tadbirlari o'tkazilishi zarur.

Deratizatsiya tadbirlarining samaradorligini baholashda quyidagilar inobatga olinishi kerak:


- ✔ aholi punktining aholi yashamaydigan hududlarida kemiruvchilar sonining 80 foizi va undan ko'proqqa kamayishi;
- ✔ aholi punktida kemiruvchilar sonini 24 h ichida 3 foizgacha kamayishi;
- ✔ aholi punkti chegarasidagi tabiiy o'choqlar va rekreatsion hududlarda 24 h ichida tuzoqqa tushish holatini 7 foizgacha kamayishi;

- ✔ binolar va qurilish maydonlarining kemiruvchilardan tozalanishi.

Obyektlarni kemiruvchilardan holi hudud toifasiga kiritishda quyidagilar inobatga olinishi lozim:

- 📌 Qo'yilgan tuzoqlarga kemiruvchilarning tushmasligi;
- 📌 obyektlarda kemiruvchilar izlarining yo'qligi;
- 📌 kemiruvchilar obyekt yoki hudud bo'ylab ochiq harakatlanmasligi;
- 📌 kemiruvchilar uyalarining, yangi axlatning yo'qligi, mahsulotlar, idishlar va boshqa buyumlarning shikastlanmasligi;
- 📌 kemiruvchilarning yoyilgan xo'rakni yemasligi.

Birinchi va ikkinchi avlod antikoagulyantlari asosidagi kumulyativ ta'sirga ega bo'lgan vositalarni bolalar va uy hayvonlaridan uzoqda, oziq-ovqat mahsulotlari va yem-xashakdan alohida qo'llash zarur.



Zoonoz kasalliklar va tabiiy antropurgik o'choqlarida rodentitsid vositalari paketchalar yoki maxsus konteynerlarda joylashtirilishi kerak.

Rodentitsid vositalar joylashtirilgan joylar deratizatsiya tadbirlarini o'tkazishning butun davri davomida kuzatib borilishi lozim.

JORIY VA O'CHOQLI (YAKUNIY) DEZINFEKSIYA TADBIRLARINI O'TKAZISHGA QO'YILADIGAN SANITARIYA-GIGIYENA TALABLARI

Ko'p kvartirali va yakka tartibdagi uy-joylarda yuqumli kasallik o'chog'i aniqlanganda quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi zarur:

- ⬆ bemorni boshqa oila a'zolaridan alohida saqlash;
- ⬆ xonani har kuni shamollatish va quyosh nurining kirishiga sharoit yaratish;
- ⬆ bemorning shaxsiy gigiyenik vositalarini (sochiq, gilam, yuvish vositalari) boshqa oila a'zolarining shaxsiy gigiyenik vositalaridan alohidalash;
- ⬆ bemor yotgan xonadagi qo'l tegadigan barcha yuzalarda (to'shak, stul, stol, eshik tutqichlari kabilar) joriy dezinfeksiyani o'tkazish;
- ⬆ ko'p kvartirali va yakka tartibdagi uy-joylarda joriy dezinfeksiyani o'tkazishdan oldin barcha yuzalarni tozalash.

ESLAB QOLING!

Kelib qo'ngan havo kemasida yuqumli kasallik belgilari bo'lgan bemorlar, kasallikka shubha qilinganlar mavjud bo'lsa, epidemik ko'rsatkichlar bo'yicha o'choqli (yakuniy) dezinfeksiya o'tkazilishi kerak.

Yuqumli kasalliklar o'choqlarida o'choqli (yakuniy) dezinfeksiya quyidagi holatlarda amalga oshirilishi kerak:



bemorni o'choqdan evakuatsiya qilgandan keyin;



bemorning o'limidan keyin;



bemor joylashtirilgan muassasa yoki shifoxonaning boshqa bo'limiga ko'chirilgandan so'ng.

Yuqumli kasalliklar o'choqlarida infeksiya turiga qarab dezinfeksiya qilinadigan joy hajmi aniq belgilab olinishi kerak.



YODDA TUTING!

Kasallik o'chog'ida o'choqli (yakuniy) dezinfeksiya tadbirlari bemor joylashgan joy kirish eshigidan boshlab quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirilishi kerak:

- ✓ kirish joyidan boshlab dezinfektsiylovchi eritmani polga purkash;
- ✓ bemorning oziq-ovqat qoldiqlari va ajralmalarini zararsizlantirish;
- ✓ barcha idishlar qopqoqli idishga yig'ilishi va zararsizlantirishi;

- ✔ yumshoq buyumlarni (choyshablar, yotoq kiyimlar, gilamlar, poyondoqlar, ustki kiyimlar) dezinfeksiya qilish uchun dezinfeksiya kamerasiga yig'ish;
- ✔ jihozlar, devorlarni **2 m balandlikkacha** dezinfeksiyalı eritma bilan zararsizlantirish;
- ✔ bemor va u bilan aloqada bo'lgan shaxslar xonalarini zararsizlantirish;
- ✔ oshxona, hammom, hojatxona va yo'lak zararsizlantirilishi hamda o'choqdan chiqishdan oldin pol qayta dezinfeksiya qilinishi;
- ✔ shaxta quduqlari mavjud bo'lganda quduq qopqoqlari zararsizlantirilishi va ulardagi suv xlorlanishi;
- ✔ o'choqli (yakuniy) dezinfeksiya bilan bir vaqtda, zarur hollarda dezinfeksiya tadbirlari amalga oshirilishi;
- ✔ bemorni kasalxonaga olib kelgan transport yakuniy dezinfeksiya qilinishi.

DEZINFEKSIYA TADBIRLARINI AMALGA OSHIRUVCHI TASHKILOTLARNI XONALARI HAMDA JIHOZLARIGA QO'YILADIGAN SANITARIYA-GIGIYENA TALABLARI



Dezinfeksiya (dezinseksiya, deratizatsiya) tadbirlarini amalga oshiruvchi tashkilotlarni jamoat binolarida joylashtirishga yo'l qo'yilmaydi.



Tashkilotlarda **mutaxassislar xonasi bo'lishi**, bunda **1 ta ish joyi uchun 6 m² ajratilishi**, biroq xonaning **umumiy maydoni 12 m²** dan kam bo'lmasligi lozim.



Deratizatsiya tadbirlarini o'tkazish uchun qadoqlash, ishchi eritmalar, emulsiyalar va xo'raklar tayyorlash xonasi kamida 12 m² bo'lishi kerak.

Tashkilotlarning xonalarida quyidagi jihozlar bo'lishi lozim:

- ✔ dezinfeksiya, dezinseksiya va deratizatsiya vositalari bilan zaharlanish holatlarida birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun mebel va dori qutisi;
- ✔ markaziy issiq va sovuq suv tarmoqlariga ulangan qo'l yuvish moslamasi (chig'anoq);
- ✔ ishlab chiqarish xonalarida oson tozalash va zararsizlantirishni ta'minlaydigan yuzalarga ega bo'lgan tegishli texnologik uskunalar, javonlar, tokchalar va shkaflar;
- ✔ ventilyatsiya.

- ✔ yoritish tizimi;
- ✔ qo'l gigiyenasi vositalari to'plami;
- ✔ gigiyenik qoplamali (ruxlangan) ish stoli;
- ✔ seyf yoki metall shkaf;
- ✔ xo'rak tayyorlash uchun vositalar;
- ✔ idishlar to'plami (o'lchov idishlari);
- ✔ tarozi;



Dezinfeksiya (dezinseksiya, deratizatsiya) vositalarini saqlash uchun omborxona quruq, yorug' bo'lishi, devorlari silliq, suvalgan, poli sementlangan yoki asfaltlangan bo'lishi lozim.

This image shows a full page of blank white paper with horizontal ruling lines. The lines are evenly spaced and run across the width of the page, providing a template for writing or drawing. There are no margins, text, or other markings present.